



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI INVESTITSİYALAR, SANOAT VA SAVDO VAZIRLIGI

MINISTRY OF INVESTMENT, INDUSTRY AND TRADE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

BUYRUQ 62-i

«26» 09 2025-yil

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining yangilangan tarkibini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-avgustdagi "Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-124-son va 2021-yil 4-martdagi "2021–2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6181-son farmonlari ijrosini ta'minlash hamda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida **buyuraman:**

1. Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining yangilangan tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2024-yil 25-oktabrdagi 94-i-son buyrug'ida:

a) 2-band uchinchi xatboshisi va buyruqning 2-ilovasi o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin;

b) 1-ilova bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi to'g'risidagi Nizomda:

quyidagi mazmundagi 13.1-band bilan to'ldirilsin:

"13.1. Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi tarkibining kamida 50 foizini nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari tashkil etadi;

Jamoatchilik kengashining umumiy a'zolari soni 15 nafardan kam bo'lmasligi zarur;

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzuridagi jamoatchilik kengashi raislari fuqarolik jamiyati institutlari vakillari orasidan tasdiqlanadi;

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining Axborot xizmati boshqarmasi Jamoatchilik kengashining ishchi organi hisoblanadi va Jamoatchilik kengash faoliyatini tashkiliy-uslubiy va axborot jihatdan ta'minlaydi."

14-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“14. Jamoatchilik kengashlarining tarkibi Jamoatchilik palatasi bilan kelishilgandan so‘ng, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirining qarori bilan har 2 yilda tasdiqlanadi.”.

3. Ish yuritish va murojaatlar bilan ishlash boshqarmasi (S. Mamadaliyeva) ushbu buyruqni vazir o‘rinbosarlari, Vazirlik markaziy apparati va tizim tashkilotlari hamda hududiy bo‘linmalari rahbarlariga yetkazishni ta’minlasin.

4. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qi ishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Vazir



I.. Kudratov

ISSVning 2025-yil "06" 09 dagi
62-i -sonli buyrug'iga
Ilova

O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi
huzuridagi Jamoatchilik kengashi
TARKIBI

T/r	Jamoatchilik kengashi a'zolari F.I.Sh.	Jamoatchilik kengashidagi o'rni	Asosiy ish joyi va lavozimi
1.	M.Sultonova	Kengash raisi	"O'zbekligim-o'zligim" NNT
2.	A. Haydarov	Kengash raisi o'rinbosari	"Ekolog" NNT raisi
3.	O. Shavkatov	Kengash a'zosi	World Association of Youth of Uzbekiston
4.	M. Razzakov	Kengash a'zosi	"Global Textile" MChJ direktori
5.	M. Sultonov	Kengash a'zosi	"O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi raisining birinchi o'rinbosari
6.	A. Qurbonov	Kengash a'zosi	"UzTrade" AJ direktori

7.	A. Abduvaxabov	Kengash a'zosi	“Peng Sheng Charm QK” MChJ direktori o‘rinbosari
8.	F. Abdualimov	Kengash a'zosi	“Uzeltexsanoat” uyushmasi raisining birinchi o‘rinbosari
9.	O. Boltayev	Kengash a'zosi	“Asia Metall Prof” MChJ direktori
10.	D. Dadahanov	Kengash a'zosi	“Global Export Company” MChJ direktori
11.	O. Yo‘ldashev	Kengash a'zosi	“PWC” MChJ direktori
12.	A. Abduqayumov	Kengash a'zosi	“Toy bola” MChJ direktori
13.	F. Mamadjanov	Kengash a'zosi	“Uztex Group” MChJ Bosh direktori
14.	T. Tursunov	Kengash a'zosi	“Madad” NNT
15.	M. Muyassarov	Kengash a'zosi	“Inson huquqlari madaniyati markazi” NNT
16.	M. Kuranbayev	Kengash a'zosi	“Jamoatchilik islohotlari” NNT
17.	B. Sapirbayev	Kengash a'zosi	“Eco sfera” NNT

18.	S. Bagramov	Kengash kotibi	ISSV Axborot xizmati boshqarmasi boshlig'i
-----	-------------	----------------	---

Izoh: Kengash a'zosi boshqa lavozimga o'tganda, uning o'rniga tayinlangan xodim Kengash a'zosi hisoblanadi. Kengash a'zosi ma'lum sabablarga ko'ra majlisda ishtirok eta olmasa, uning vazifasini bajaruvchi shaxs yig'ilishlarda ishtirok etadi.

Kengash tarkibiga boshqa tadbirkorlik subyektlari ham kiritilishi mumkin.